

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QISH SAVODXONLIGINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

Abdufattoyeva Gulazzam Qobiljon qizi

Andijon pedagogika instituti „Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7264844>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili o'qish savodxonligi fanini yaxshi tashkil etish uchun pedagogik texnologiyalarni qo'llash va shu orqali o'quvchilar bilimini oshirish, va yozma va og'zaki nutq nima uchun kerakligi masalalari haqida.*

***Kalit so'zlar:** nutq, yozma nutq, og'zaki nutq pedagogik texnologiya, motiv, innovatsiya.*

РОЛЬ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ЧТИТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация.** Данная статья посвящена вопросам применения педагогических технологий для хорошей организации учебной грамотности по родному языку в начальных классах и, таким образом, повышения знаний учащихся, а также для чего нужна письменная и устная речь.*

***Ключевые слова:** речь, письменная речь, устная речь педагогическая технология, мотив, инновация.*

THE ROLE OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MOTHER LANGUAGE READING LITERACY IN PRIMARY GRADES

***Abstract.** This article is devoted to the application of pedagogical technologies for the good organization of educational literacy in the native language in primary grades and, thus, improving students' knowledge, as well as what written and oral speech is needed for.*

***Key words:** speech, written speech, oral speech, pedagogical technology, motive, innovation.*

KIRISH

Hozirgi kunda muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratmoqda. Bugungi kunda fan va texnikaning o'sib borishi ta'limga yangiliklar kiritishni talab etmoqda. Innovatsion g'oyalarni yaratish, uni boshqalarga tatbiq etish orqali yurtimizdagi maktab muassasalaridagi o'quvchilarga turtki bo'lmoqda. Ta'lim sifatini yanada oshirish uchun bizga albatta yozma nutq bilan birga og'zaki nutq ham kerak. Farzandlarimizni og'zaki nutqi qanchalik rivojlangan bo'lsa yozma nutq savodxonligi ham shunchalik rivojlangan va ravon bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni oldimizga maqsad qilib qo'yishimiz va albatta bu madsad sari olg'a qadam tashlashimiz zarur. Ta'lim tizimimizga katta yutuqlar olib kirish uchun barcha ta'lim soha vakillari bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish lozim. Ta'lim sifatini yanada oshirish uchun bizga albatta yozma nutq bilan birga og'zaki nutq ham kerak. Farzandlarimizni og'zaki nutqi qanchalik rivojlangan bo'lsa yozma nutq savodxonligi ham shunchalik rivojlangan va ravon bo'lishi kerak.

Har bir bol bir-biridan ikkinchisiga o'tib, bosqichlarni bosib o'tadi. Yosh bosqichlarda bola ko'nikmalar, bilimlar, shaxsiy xususiyatlarva harakterli xususiyatlarning rivojlanishi bilan birga keladi. Bolani ntarbiyalashda ota-ona albatta yosh xususiyatiga qarshi lozim. Bunda bolaga tug'igandan boshlab ya'ni chaqaloqlik davridan boshlab o'rgatib borish zarur. Bola o'n to'rt kunlik bo'lganida onani ovozini eshita yoshiga qarab tushuna boshlaydi. Bunda ona farzandiga „ alla'' aytishi va turli she'rlar, qo'shiqlar aytib kiyintirishi kerak.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bolalarda ushbu yoshdagi bolalarda o'zlarini qilgan ishlarini kattalar tomonidan maqtashini xohlaydilar. Bu yoshda bolalar nutq faoliyati rivojlanadi. Bunda ota-ona albatta farzandiga o'rnak bo'lishi kerak bo'ladi. Ya'ni ona farzandiga baqirmaslikni o'zini o'tkazishni, injiq bo'lmaslikni o'rgatadi-yu, amma o'zi baqirsa bola onadan ko'chiradi. Bu yoshda bolalar ota-onasiga o'xshahsni istashadi. Shu yoshda ota-onalar farzandiga o'rnak bo'lishi kerak.

O'yinlar orqali bolalarga ko'p narsalarni o'rgatish lozim. Ya'ni turli o'yinar yordamida bolani so'z boyligini oshirish, so'zlarni to'g'ri aytishni o'rgatish ham mumkin.

TADQIQOT METODLARI VA METODOLOGIYASI

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qtuvchilari zimmasida katta ma'suliyat turadi. Maktab ostonasiga endi qadam qo'ygan o'quvchi yoshlarni maktab hayoti bilan tanishtirib bilim olishlari haqida ko'nikmalar berib boradi.

Bolalarning aqliy faoliyati ularning iqtidorlari, qiziqishlari shu davrda rivojlanib, shakllanib boradi.„Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabi'' dir. Bu ham o'qituvchilarning kasbi ma'suliyatli kasb ekanini isbotlaydi.

Har bir pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchi ehtiyojiga mos bo'lishi kerak. O'quvchilarning maktab darsliklarini yaxshi o'zlashtirishida o'qtuvchi bilimi, ularga o'rgatish salohiyati qay darajada ekanligi va bolalar qiziqishini uyg'otishda pedagogik texnologiyalar turtki bo'ladi.

Yozma nutq biz uchun eng muhim hisoblanadi. Og'zaki nutq bilan yozma nutq bir-biriga chambarchas bog'liq. Negaki og'zaki nutq bor joyda yozma nutq albatta bo'ladi. O'quvchilar ham kitoblarda yozilganlarni tog'ri o'qishlari bilan bir qatorda aytilganlarni tog'ri yozishlari kerak. Yozma nutq savodxonligini biz diktantlar orqali oshirishimiz mumkin. Biz o'qiyotgan kitoblarni ham yozma nutq orqali yozilgan. Siz yozayotganlarizni boshqalar o'qib tushnishi kerak. Barcha fanlarga yozma nutq kerak. Sababi ularning hammasi yoziladi.

Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev „Farzandlarimizga avvalo o'zimiz hamma sohada vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishda, ilmga, kasb-hunarga mehr qo'yishda ota-ona , jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy na'muna ko'rsatishimiz kerak.'' Bu fikrlar barcha kasb egalarining qalblariga yetib borib o'z kasblariga sadoqatli bo'lishlariga da'vat etadi. Farzandingiz rivojlanishining barcha asosiy bosqichlarida bitta umumiy narsa bor: har bir bosqichda o'g'lingiz yoki qizingiz ularning ota-onalariga muhtoj. Ota-onalar bolaning xatti-harakatlari psixikaning rivojlanishi, gormonal o'zgarishlar bilan bog'liqligini tushunishlari kerak. Bola o'zgarganda bir nechta inqirozli davrlar mavjud. U o'zini yomon tutadi yoki sizni xafa qilmoqchi deb o'ylamang. O'zgarishlar hatto o'zi uchun ham sezilmasdan sodir bo'lmoqda. Chaqaloqning aqliy faoliyati murakkablashib, atrofdagi dunyo o'zgarib bormoqda.Tushunish siz tomondan muhim ahamiyatga ega. Ha, uning barcha masxarabozligi, tajovuzkorligi va yomon xatti-harakatlarini rag'batlantirish yoki e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu bola uchun zararli.

Ammo u bilan tajovuzkor bo'lmaslik, kaltaklash, baqirish kerak emas. Hozir chaqalog'ingiz bilan nima yuz berayotganini tushunishga harakat qiling. U ko'proq mustaqil bo'lishni xohlaydimi? Qoshiq ushlashni yoki kosadan o'zingiz ichishni o'rganyapsizmi? Buning hech qanday yomon joyi yo'q. Unga yordam bering, ko'rsating, o'rgating. Bu kelajakda farzandingiz bilan normal, sog'lom munosabatlarni o'rnatishga imkon beradi. Bu esa farzandlarimiz nutqi ravon bo'lishi va sog'lom fikrlashiga olib keladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashda dars to'laligicha qamrab olinishi kerak. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qish savodxonligi darslarini tashkil etishda pedagogik mahorat bilan innovatsin yondashish orqali o'quvchilar qiziqishlarini ona tiliga o'stirib borish kerak. Ona tili fanini hayotga bog'lab o'tish lozim. Shunda o'quvchi ona tilimizni ardoqlashga va unu mukammal o'rganishga keying yosh avlodga ham ona tilimizni sir asrorlarini o'rgatishga bel bog'lasinlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning Yoshi qiziqishi aqliy faoliyatini alohida e'tiborga olish kerak. Ularning yoshlariga, qiziqishiga ,aqliy faoliyatiga qarab oson qiziqzrli qilib mavzularni o'rgatib borishlari kerak. O'quvchilarga atrof-muhit, hayotga bog'lab tushuntirilgan mavzular ularni fikrlashini tez, dunyoqarashini keng bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'zgalar fikrini eshitib tushuna olishlari va o'zgalarga fikrini bayon qilib yetkazib bera olishlari kerak.

MUHOKAMA

Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev „Farzandlarimizga avvalo o'zimiz hamma sohada vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishda, ilmga, kasb-hunarga mehr qo'yishda ota-ona , jamiyat oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishda amaliy na'muna ko'rsatishimiz kerak.” Bu fikrlar barcha kasb egalarining qalblariga yetib borib o'z kasblariga sadoqatli bo'lishlariga da'vat etadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir darsni o'ziga xos interfal metodlarni tanlab o'tish to'g'ri bo'ladi. O'qitish jarayonida yuqori ko'rsatkichga erishish uchun dars jarayonini ketma- ketligini avvaldan rejalashtirish kerak. Darsga oid pedagogik tehnologiyani tanlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutq. // Ma'rifat. Toshkent, 2017 yil 1 iyul № 52.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T. O'zbekiston. 1998-y.